

NEMIS TILINI O'QITICHDA O'YIN METODLARINING AHAMIYATI

G.B.Esbergenova

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirish, chet tilini o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanishi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: interfaol o'yinlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, interfaol metodlar, ko'nikma, malaka, chet tili, metodika.

Abstract: This article shows ways to increase the effectiveness of teaching in German language classes using pedagogical technologies, games in the classroom, the types of modern methods used in foreign language teaching methods and their use.

Keywords: interactive games, use of innovative technologies, interactive methods, skills, competencies, foreign language, methodology.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Chet tillarini o'rganishga va o'qitishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa chet tili darslarini, xususan, nemis tili fanini qiziqarli qilib o'tishni ya'ni turli innovatsion metodlardan, texnik vositalardan, o'quvchilarni jalb qiluvchi interfaol o'yinlardan foydalanishni taqoza etmoqda.

Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqishga olib chiqish to'g'risida” gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 qarori qabul qilindi.

Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish va o'rgatish jarayonlari tobora murakkablashib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga, ta'lim usullarida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi kunda nemis tili darslarida interaktiv yondashuvlar, jumladan, o'yin metodlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada biz nemis tilini o'qitish jarayonida o'yin metodlarining roli va ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

O'yin metodlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimlarni osonroq o'zlashtirish imkonini beradi. Ular turli yoshdagi talabalar uchun mos keladi va darslarni qiziqarli hamda samarali qiladi. Quyida o'yin metodlarining asosiy afzalliklarini sanab o'tamiz:

1. Motivatsiya. O'yinlar orqali o'quvchilar faol ishtirok etishadi va bu ularning qiziqishini oshiradi.

2. Kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish. O'yinlarda o'quvchilar bir-biri bilan muloqot qilishlari kerak bo'ladi, bu esa tilni amalda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

3. Xotirani mustahkamlash. O'yinlar orqali olingan ma'lumotlarni eslab qolish osonroq bo'ladi, chunki ular ijobiy his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'ladi.

4. Stress darajasini kamaytirish. Darslar davomida o'yinlardan foydalanish stress darajasini kamaytiradi va o'quvchilar uchun qulay muhit yaratadi.

Nemis tilini o'rgatish jarayonida bir qator qiziqarli o'yinlar mavjud. Shuni aytib o'tish joizki, bolalarga til o'rgatishda shunday o'yinlardan foydalanish kerakki, unda barcha o'quvchilar birdek ishtirok etishi va darsdan yangilik olishi kerak.

Maktab o'quvchilarining e'tiborini jalb qilish usullaridan biri o'qitishning nostandart shakllari –ular “o'quvchilarning chet tiliga qiziqishini ochiradi va materialni yaxshiroq o'zlashtirishga hissa qo'shadi”.

Har qanday chet tilini o'rganishdan maqsad o'sha tilda bimalol muloqat qila olishdir. Chet tillarni o'rgatish va o'rganish uzoq va mukammal jarayon. Chuning bilan birga u kishidan muntazam mehnatni va o'z ustida ishlashni talab qiladi.

O'g'zaki nutq malakalarni o'stirish uchun chet tillarni o'qitish jarayonida har xil interfoal o'yinlardan qo'llash chet tilini o'rganishni zerikarli emas, aksincha qiziqarli va sevimli mashg'ulotga aylantirishi aniq. Interfoal o'yinlar tilni o'rganuvchilar o'zlarini ancha erkin tutishlarini hatto uyatchan o'quvchilarni ham ushbu o'yinlarda qatnashishga undaydi. Interfaol o'yinlarni ayniqsa grammatika va so'z boyligini orttirish uchun qo'llash samaralidir. Ammo bu o'yinlarni qo'llashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga o'yindan ko'zlangan maqsadni o'yin qoidalarini aniq tushuntirishi va o'tilayotgan mavzu bilan chambarchas boglashi kerak.

O'quvchilar o'yin orqali o'z shaxsiyatini rivojlantiradilar. Shu bilan birgalikda bolalarning dunyo qarashi kengayadi. Dunyoga boshqacha nazar tashlay boshlaydi. O'yin orqali bolalar o'zlarining butun faoliyati uchun diqqatni jamlash, ijodkarlik va mustaqil fikrlash kabi ajoyib hislatlarga ega bo'lishadi. Bolalardagi tortinchoqlik va qorquv hislatlari asta-sekin yo'qoladi.

O'qituvchilarga ham ma'lumki, chet tilini o'qitishda o'z ona tilini chuqurraq urgangan o'quvchilarga qo'shimsha tilni o'rgatish boshqalarga nisbatan osan kechadi. Chunki bu kabi til o'rganuvchilar beixtiyor tillarni bir biriga qiyoslab o'rganadi va ularda tillar integratsiyasi oson omalga oshadi.

Nemis tili darsi chunshaki o'yin emas. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonch va muloqat quloyligi o'yin muhitidan kelib chiqadi.

Nemis tili darslarida o'yinlar odatda dars yakuniga hali bir necha daqiqa qolgan bo'lsa, bo'shliqni to'ldirish uchun ishlatiladi. Bolalar o'yin orqali o'z shaxsiyatini rivojlantiradilar.

Fonetik o'yinlar – o'quvchilarni begona tovushlarni talaffuz qilishga o'rgatish, she'rlarni ovoz chiqarib, aniq o'qishga o'rgatish, ularni rollarda ijro etish maqsadida o'rganish. Masalan: «Zungenbrecher»- (Til buzlarlar).

Qoidalar: O'quvchilarga qiyin talaffuz qilinadigan jummalarni aytish taklif etiladi. Masalan, "In Ulm, um Ulm, und um Ulm herum." Kim eng tez va aniq talaffuz qilsa, g'alaba qozonadi.

Leksik o'yinlar - o'quvchilarni tabiiy muhitga yaqin vaziyatlarda lug'atdan foydalanishga o'rgatish, o'quvchilarning nutqiy fikrlash faoliyatini faollashtirish, og'zaki reaksiyani rivojlantirishdan iborat. Leksik o'yinlar nemis tilini o'rganishda so'z boyligini kengaytirish, yangi so'zlarni o'zlashtirish va lug'at bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan: "Synonyme und Antonyme" (Sinonimlar va antonimlar).

Qoidalar: O'qituvchi so'zni aytadi, talabalar esa uning sinonimi yoki antonimini topishlari kerak. Masalan, "groß" (katta) – "klein" (kichkina). Bu o'yin so'z boyligini kengaytiradi.

Grammatik o'yinlar - o'quvchilar tomonidan ma'lum grammatik qiyinchiliklarni o'z ichiga olgan nutq namunalaridan foydalanishni targ'ib qilish, ushbu nutq namunasidan foydalanish uchun vaziyat yaratish, oquvchilarning nutq faolligi va mustaqilligini rivojlantirish. Masalan: "Perfekt vs. Präteritum" (Perfekt va Präteritum).

Qoidalar: Talabalarga fe'llar beriladi, ular esa ularni perfekt va präteritum zamonlarida qo'yimishlari kerak. Masalan, "gehen" fe'li:

Perfekt: Ich bin gegangen.

Präteritum: Ich ging.

So'z o'yinlari - So'z birikmalari, sinonimlar yoki antonimlarni topish kabi o'yinlar so'z boyligini oshirishga yordam beradi. "Wort-Erraten" (So'z taxmin qilish).

Qoidalar: O'qituvchi so'zning faqat bir qismini aytadi, o'quvchilar esa butun so'zni taxmin qilishlari kerak. Masalan, o'qituvchi "Ba-" deydi, talabalar "Bahnhof" (vokzal) deb taxmin qilishi mumkin.

Rolli o'yinlar- dan nemis tili darslarining samaradorligini oshirish uchun foydalanamiz. Bu o'yinning afzallik tomonlari shundaki, bu vaziyatdan kelib chiqib o'ynaladi. Bu o'yin nafaqat fan o'rganishi uchun foydali, shu bilan birga aqliy qobiliyatni shakllantirishga ham yordam beradi. Bu o'yinda mavzular tanlab olinib, bolalar dialoglar tashkil qilishadi. Masalan, kiyim do'konlaridagi yoki ovqatlanish joylaridagi muloqatlar- bularning barchasini nemis tilida gapirib, ham ko'rsatib berishadi.

Izlanivchan o'qituvchilar mavzu bo'yincha ko'plab qiziqarli, kulgili kommunikativ topshiriqlar o'ylab topishlari mumkin. Ular qanchalik qiziqarli, tasirchan, his-hayajonli bo'lsa, talabalar tomonidan shunchalik tez o'zlashtiriladi. Gapirish jarayonida oqituvchi tomonidan ko'rsatilgan barcha nutqiy harakatlarning qayta takrorlanishi, so'zlovchining yanada jonli va tasirchanligini oshirib, talabalarning gapirishiga ehtiyoj va rag'bat, quvnoq kayfiyat uyg'otadi. Dars jarayonidagi bunday quvnoqlik, shodon kayfiyat darsning sifatini yanada oshiradi.

Nemis tilini o'qitishda o'yin metodlari muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi va darslarni yanada qiziqarli qiladi. Bundan tashqari, o'yinlar orqali olingan bilimlar xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday ekan, o'qituvchilar ushbu metodlarni keng qo'llashlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki bu o'yinlarni bolalarning saviyasi yoki yoshiga qarab osonlashtirish yoki qiyinlashtirishimiz ham mumkin. Ushbu interfaol o'yinlarning maqsadi turlicha bo'lib bu o'yinlar orqali diqqatni jamlash, so'z boyligini osirish, tezkorlik, aqililik, ziyrak asosiysi esa darsni qiziqarli tarzda o'zlashtib, yodda saqlab qolishimiz mumkin.

Va nihoyat, shuni aytish mumkinki, o'yinlar nafaqat o'quvchilarni dars mashg'ulotlarida ixtirok etishga undaydi, balki ularga o'ziga ishonch va mashg'ulot davomida o'zlarini erkin his qilishlariga yordam beradi, ayniqsa bu o'yinlar guruhda ishlash va raqobatni yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdunazarova Z. Ta'lim jarayonini didaktik loyihalash // Ta'lim texnologiyalari. –T., 2006, - №2. – B. 18-19
2. Dehkanova Dilnoza “Ingliz tili darslarida interfaol o'yinlar” O'rta maxsus ta'lim bosqichi uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand SamDCHTI, 2013
3. Фарберман Б.Л. Передовые педагогические технологии –Т.: «Фан» Изд-во АН Республики Узбекистан, 2000
4. Usmanova A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari, T.: “Akademiya”, 2007y
5. [http:// www.eslgamesworld.com/ClassroomGames.html](http://www.eslgamesworld.com/ClassroomGames.html)